

AVTOMOBIL TRANSPORT VOSITALARIDA YOQILG' I SARFINI
KAMAYTIRISH YO'LLARI**Zoxidov Tohirjon Mirzafar o'g'li**

ORCID: 0009-0001-3942-9184

Alfraganus University,

"Buxgalteriya hisobi va soliq"

kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya Ushbu maqolada avtomobil transport vositalarida yoqilg'i sarfini kamaytirishning nazariy va amaliy yo'llari o'rganilgan. Konstruktiv takomillashtirishlar (osma tizimi, uzatmalar qutisi) va ekspluatatsion choralar (harakat rejimlarini optimallashtirish, texnik xizmat davriyligini ilmiy asoslash) tahlil qilingan. Taklif etilgan matematik model yordamida texnik xizmat ko'rsatishning optimal davriyligi aniqlanib, nosozliklar 27 % ga kamayishi isbotlangan. Natijalar transport korxonalarida yoqilg'i xarajatlarini boshqarish va xizmat tannarxini pasaytirishda qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: yoqilg'i sarfi, avtotransport, texnik xizmat, optimallashtirish, matematik model, tannarx, yoqilg'i iqtisodiyoti.

Kirish Transport korxonalarida xarajatlarning eng muhim tarkibiy qismini yoqilg'i xarajatlari tashkil etadi. Shu bois, yoqilg'i sarfini kamaytirish masalasi nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham yuqori dolzarblik kasb etadi. Dya kov I.F.ning tadqiqotlarida (Dyakov, 2016) avtomobil transport vositalarida yoqilg'i sarfini kamaytirishning konstruktiv va ekspluatatsion yo'llari batafsil ko'rib chiqilgan.

Konstruktiv yo'llar quyidagilardan iborat:

- Avtomobilning osma tizimini takomillashtirish (vibratsiya va tebranishlarni kamaytirish);
- Quti uzatmalarining o'tkazish nisbatlarini optimallashtirish;
- Shinalar parametrlari va elektron yonilg'i quyish tizimlarini takomillashtirish;
- Avtomatik uzatmalar qutisini qo'llash orqali dvigatelning optimal rejimlarda ishlashini ta'minlash.

Ekspluatatsion yo'llar esa quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Dvigatelning yuklama rejimlarini optimallashtirish;
- Harakat rejimlarini iqtisodiy boshqarish (tezlashish, barqaror harakat va sekinlashish fazalarini muvofiqlashtirish);
- Texnik xizmat ko'rsatishning optimal davriyligini belgilash;

- Yoqilg'ini saqlash va hisobga olishni takomillashtirish.

Tadqiqotchi tomonidan taklif etilgan **matematik model** texnik xizmat ko'rsatish davriyligini optimallashtirishga imkon beradi. Model yuklama rejimlarini, texnik ta'mir uchun sarflanadigan vaqtni (oddiy prostoylar) va joriy ta'mirning mehnat talabchanligini hisobga oladi. Natijada, optimal rejim va texnik xizmat ko'rsatish davriyligi avtomobillarning 1000 kVt·soat ishlash davrida nosozliklar sonini **27 %** ga kamaytirishi isbotlangan.

Muallifning hisob-kitoblariga ko'ra, yiliga 16 martadan ortiq texnik xizmat ko'rsatish yoqilg'i sarfini biroz pasaytirishi mumkin bo'lsa-da, nosozliklar intensivligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi, chunki detallarning charchoq va eskirishi doimiy ravishda sodir bo'ladi.

Ilmiy yangilik va amaliy ahamiyati. Dya kov I.F. taklif qilgan yondashuvlar avtomobil transport korxonalarida yoqilg'i sarfini boshqarish va hisobini takomillashtirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan:

- Harakat rejimlarini iqtisodiy boshqarish algoritmini ishlab chiqish;
- Energiya sarfi bo'yicha monitoring tizimini joriy etish;
- Texnik xizmat ko'rsatish davriyligini ilmiy asoslangan tarzda belgilash.

Ushbu yondashuvlarni O'zbekiston avtomobil transport korxonalarida qo'llash yoqilg'i xarajatlarini 5–8 % ga kamaytirish, shu orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar tannarxini pasaytirish imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqot natijalari yoqilg'i hisobini yuritish, tabiiy yo'qotishlarni aniqlash va yoqilg'i sarfini real vaqt rejimida monitoring qilish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishda muhim manba hisoblanadi.

Muhokama O'zbekiston Respublikasida avtomobil transport korxonalarida xarajatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalasi bugungi kunda yuqori dolzarblikka ega. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, mavjud hisob tizimi transport korxonalarining texnologik xususiyatlarini to'liq hisobga olmaydi, bu esa xizmatlar tannarxining sun'iy ravishda oshishiga va resurslardan samarasiz foydalanishga olib kelmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yoqilg'i xarajatlari transport xizmatlari tannarxining 30–40 foizini, asosiy vositalarning eskirishi esa 25–35 foizini tashkil etadi. Shu bois, yoqilg'i hisobini takomillashtirish, shinalar va akkumulyatorlarni hisobdan chiqarish tartibini yangilash, asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash usullarini transport vositalarining faol va nafaol turlariga ajratgan holda amalga oshirish tannarxni pasaytirishning eng samarali yo'llaridan biri ekanligi isbotlandi.

Ilmiy yangilik sifatida taklif etilgan «qaytarilgan chiqindilar» moddasini kalkulyatsiya tarkibiga kiritish, yoqilg'i hisobi uchun qo'shimcha sub-schyotlar joriy etish, GPS-monitoring ma'lumotlarini buxgalteriya hisobiga integratsiya qilish hamda amortizatsiya hisoblashning hajmga mutanosib va jadallashtirilgan usullarini qo'llash korxonalarda real iqtisodiy samara berdi. Amaliyotda joriy etilgan takliflar natijasida yoqilg'i xarajatlari bo'yicha 5,3 foiz, shinalar va amortizatsiya bo'yicha 2,6–4,2 foiz tejashga erishildi.

Xorijiy tajriba (AQSh, Yevropa davlatlari) va mahalliy olimlarning ishlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, xarajatlar hisobini faqat moliyaviy hisobot talablari doirasida emas, balki boshqaruv hisobi va tannarxni real vaqt rejimida monitoring qilish nuqtai nazaridan takomillashtirish zarur. Ushbu yondashuv xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) talablari bilan ham uyg'unlashadi.

Biroq, tadqiqot jarayonida bir qator muammolar ham aniqlandi: me'yoriy-huquqiy bazaning yetarli emasligi, korxonalarda raqamli texnologiyalarning past darajada qo'llanilishi, buxgalter va iqtisodchilar malakasining yetishmasligi. Bu muammolarni hal etish uchun Soliq kodeksiga o'zgartirishlar kiritish, maxsus yo'riqnomalarni ishlab chiqish va korxonalar uchun avtomatlashtirilgan dasturiy ta'minotni joriy etish zarur.

Umuman olganda, dissertatsiyada ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar avtomobil transport korxonalarida xarajatlar hisobini takomillashtirish, xizmatlar tannarxini pasaytirish va korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi avtomobil transport korxonalarida xarajatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishga bag'ishlangan ushbu dissertatsiya tadqiqoti quyidagi asosiy natijalarga erishdi:

1. Avtomobil transport korxonalarida xarajatlar hisobining nazariy asoslari chuqurlashtirilib, xalqaro va milliy tajribalar tahlil qilindi. Transport sohasining texnologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda xarajatlarning yangi klassifikatsiyasi taklif etildi.

2. Mavjud holat tahlili natijasida yoqilg'i, shinalar, akkumulyatorlar va asosiy vositalar eskirishini hisobga olishda jiddiy kamchiliklar aniqlandi.

3. Ilmiy yangilik sifatida quyidagilar ishlab chiqildi:

o Kalkulyatsiya moddalariga «qaytarilgan chiqindilar» moddasini kiritish mexanizmi;

o Yoqilg'i hisobini takomillashtirish va kamomadlarni aniqlash usullari;

o Avtomobil shinalari va akkumulyatorlarini hisobdan chiqarishning yangi tartibi;

- Asosiy vositalarni «faol» va «nafaol» turlarga guruhlab, amortizatsiya hisoblashning progressiv usullari;
 - Soliq kodeksiga amortizatsiya normalari bo'yicha takliflar.
4. Taklif etilgan usullar amaliyotda sinovdan o'tkazilib, iqtisodiy samaradorlikka erishildi (yoqilg'i bo'yicha 5,3 %, shinalar bo'yicha 2,6 %, motor moyi xarajatlari bo'yicha 4,2 % tejash).
5. Tadqiqot natijalari asosida avtomobil transport korxonalarida xarajatlar hisobini yuritish bo'yicha amaliy tavsiyalar va metodik ko'rsatmalar ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekistan Respublikasining Konstitutsiyasi: - T.: « O'zbekistan», 2015 y, - 40 b.
2. O'zbekistan Respublikasi "Auditorlik faoliyati tugrisida"gi Konuni. (yangi taxriri). 2000 yil 26 may. №78-11.
3. O'zbekistan Respublikasining "Soliq Kodeksi" (yangi taxriri). 2009 yil 30 dekabr 2009 yil, URK-241-son Konuni 52-son, 556-modda.
4. O'zbekistan Respublikasi "Buxgalteriya xisobi tugrisida"gi Konuni (yangi taxriri). 2016 yil 13 aprel. № 404.
5. O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi "Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barkarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari tugrisida"gi PF-4053-sonli Farmoni.
6. O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi "Aktционерlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshkaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari tugrisida" PF-4720-sonli Farmoni.
7. O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 yanvardagi "Aholiga transport xizmati kursatish xamda shaxarlar va kishloklarda avtobuslarda yulovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari tugrisida"gi 2724-sonli Karori.
8. O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekistan Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha xarakteristik strategiyasi tugrisida"gi PF-4947-sonli Farmoni.
9. Karimov I.A. "Erishgan marralar bilan chegaralanmasdan, boshlagan isloxotlarimizni yangi boskichga kutarish-bugungi kundagi eng dolzarb vazifamizdir" - T.: «O'zbekistan», 2015 y. - 408 b.
10. Karimov I.A. "Bosh maksadimiz-iktisodiyotimizda olib borayotgan isloxotlarni va tarkibiy uzgarishlarni keskin chukurlashtirish, xususiy